

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 330.322:37.014.543.1

JONUZOKOV MIRZABEK KULMAMATOVICH

**OLIIY TA’LIM MUASSASALARINI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI
OSHIRISH**

08.00.07- Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy
darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. M.B.Kalonov

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. RESPUBLIKA OLIY TA'LIMNI INVESTITSION JOZIBADORLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	13
1.1-§. Respublikada investitsion jozibadorlik va oliy ta'limda uni rivojlantirishning nazariy jihatlar.....	13
1.2-§. Oliy ta'limni investitsion samaradorligi va jozibadorligini baholash ko'rsatkichlar tizimi.....	21
1.3-§. Oliy ta'lim muassasalari investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi va ulardan respublikada foydalanish imkoniyatlari.....	32
I bob bo'yicha xulosalar.....	43
II BOB. O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIK VA OLIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHGA KIRITILADIGAN INVESTITSIYALARNI OSHIRISH TENDENSIYALARI	44
2.1-§. Respublika oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etish holati tahlili va dinamikasi.....	44
2.2-§. Respublika oliy ta'lim muassasalari investitsion jozibadorligini oshirishda oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	56
2.3-§. Oliy ta'lim muassasalari investitsion jozibadorligiga oshirishga tasir etuvchi omillardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	66
II bob bo'yicha xulosalar.....	82
III BOB. RESPUBLIKA OLIY TA'LIMI MUASSASALARINI RIVOJLANTIRISHGA JALB ETILAYOTGAN INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISH YO'LLARI	83
3.1-§. Respublika oliy ta'limni raqamli texnologiyalar asosida investitsiya jozibadorligini oshirish.....	83
3.2-§. Respublikamizda davlat-xususiy sherikligi (DXSH)ni rivojlantirish asosida oliy ta'lim investitsiya jozibadorligini oshirish imkoniyatlari...	95
3.3-§. Respublika oliy ta'limi investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ekonometrik modellashtirish asosida prognoz parametrlarini ishlab chiqish.....	107
III bob bo'yicha xulosalar.....	120
XULOSA	122
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	125
ILOVALAR	132

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ro'y berayotgan jadal iqtisodiy taraqqiyot yuqori bilimli va malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur investitsiyalarni kiritishni taqozo etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, oliy ta'lim tizimi taraqqiyoti investitsiya faolligiga bevosita bog'liq bo'lib, uning zarurati quyidagi ma'lumotlarda, ya'ni "2022-yilda jahon ta'lim bozorini rivojlantirishga sarflangan mablag'lar miqdori 106,46 mlrd.dollarni tashkil etgan holda, bu ko'rsatkich 2032-yilga kelib 421 mlrd. dollarni tashkil etishi prognoz qilingan"¹ligida o'z ifodasini topgan. Oliy ta'limga investitsiyalarni jalb qilish, dunyo iqtisodiyoti uchun malakali kadrlarni ta'minlash bilan birga tarmoq va korxonalarda raqobatbardoshlikka erishish imkoniyatini yaratadi.

Jahonda globallashuv sharoitida mehnat bozorini o'sib borayotgan ehtiyojini qondirishda iqtisodiyotning tarmoq va sohalari raqobatbardoshligini ta'minlash uchun buyurtmachilar talablariga mos oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini investitsiya jozibadorligi bilan bog'liq holda tadqiq etishga yo'naltirilgan izlanishlar olib borilmoqda. Oliy ta'limni rivojlantirishda investitsiya oqimini oshirish, oliy ta'limda raqamli texnologiyalar asosida investitsion jozibadorlikka erishish, universitetlar imidjlari va xalqaro reytingdagi o'rnini oshirish, oliy ta'limda davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb qilishni ko'paytirish kabi moliyaviy, iqtisodiy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda moliyaviy-investitsiya tizimini rivojlantirish orqali oliy ta'lim tizimida investitsion jozibadorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "biz mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash uchun qat'iy qadamlar tashladik". Shuningdek, mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi taraqqiyotiga ustuvorlik berilib, "...oxirgi yetti yilda bitiruvchilarning oliy ta'limda qamrov darajasi 9 %dan 42 %ga oshdi, oliy o'quv yurtlari soni esa 200 tadan ortdi"².

¹ <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/education-technology-market>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2024 yil 3 may.

Ayniqsa, "...mamlakatimizda 250 mlrd. dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan, 110 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalar va 30 mlrd. dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish"³ muhim maqsad sifatida belgilanib, natijada oliy ta'lim muassasalariga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda oliy ta'limga kiritilgan investitsiya samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, oliy ta'limning investitsion jozibadorligini oshirishda "raqamli ta'lim sifati" hamda "raqamli ta'lim komponentlari" bog'liqligini hisobga oluvchi "raqamli investitsion jozibadorlik" modelini ishlab chiqish, oliy ta'limga investitsiyalarni jalb etishda davlat-xususiy sheriklik shartnomaviy munosabatlarida (tashkiliy-huquqiy va moliyaviy) xatarlarni pasaytirish bo'yicha mexanizmlarni taklif etish, respublika oliy ta'lim muassasalarining investitsiyaviy jozibadorligiga omillarning ta'siri vektorli avtoregressiya modeli asosida baholash hamda investitsiya hajmini oshirishning uzoq muddatli prognoz parametrlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 25-dekabr O'RQ-598-sonli "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 27-iyuldagi PF-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini yanada

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.